

О‘ЗБЕКИСТОН ВА YEВРОПА ИТТИФОҚИ О‘RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALARNING RIVOJLANISHI

Nodirova Sevara Samariddin qizi

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
2-bosqich magistranti*

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi diplomatik aloqalar mamlakatimiz davlat mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq kurtak yoza boshladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e‘lon qilinishi Yevropa hamjamiyatlari oldiga yosh davlatni tan olish va u bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatish masalasini qo‘ydi. 1991 yil 31 dekabrda “O‘n ikkilarning qo‘shma deklaratsiyasi” bilan Yevropa hamjamiyatlari mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘tirof etdi¹. 1992 yil 15-aprelda “Yevropa hamjamiyatlari Komissiyasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida o‘zaro anglashuv Memorandumi” imzolandi. 1994 yil 16 noyabrda Yevropa Ittifoqining birinchi mintaqaviy vakolatxonasi Almati shahrida ochildi hamda diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.

Yevropa hamjamiyatlari va mustaqil O‘zbekistonning dastlabki aloqalari “Sharqiy Yevropa va Sovet Ittifoqida yangi davlatlarni tan olish bo‘yicha rahbariy qoidalar” to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asoslangan holda boshlandi. Mazkur aloqalarning boshqa bir jihati shundan ediki, o‘zaro tan olish va diplomatik aloqalar o‘rnatish jarayoni Ittifoqqa a‘zo davlatlarning O‘zbekistonni alohida tartibda tan olish va diplomatik munosabatlar o‘rnatish hodisasi bilan hamohanglikda kechdi.

Jumladan, mustaqil O‘zbekiston Daniya Qirolligi bilan 1992 yil 25 yanvarda, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo‘shma Qirolligi bilan 1992 yil 18 fevralda, Finlyandiya Respublikasi bilan 1992 yil 26 fevralda, Fransiya Respublikasi bilan 1992 yil 1 martda, Germaniya Federativ Respublikasi bilan 1992 yil 6 martda, Belgiya Qirolligi bilan 1992 yil 10 martda, Gresiya Respublikasi bilan 1992 yil 16 martda, Ispaniya Qirolligi bilan 1992 yil 17 martda, Italiya Respublikasi bilan 1992 yil 24 martda, Avstriya Respublikasi bilan 1992 yil 25 martda, Lyuksemburg Buyuk Gersogligi bilan 1992 yil 10 iyulda, Portugaliya Respublikasi bilan 1992 yil 12 avgustda, Niderlandiya Qirolligi bilan 1992 yil 24 noyabrda, Irlandiya Respublikasi bilan esa 1997 yil 7 noyabrda diplomatik munosabatlar o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi². Yodda saqlash lozimki, o‘zaro tan olish va diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi ayni bir

¹ Bulletin de CE, n 1-2/ 1992. – P. 76.

² Европа Иттифоқига кейинчалик аъзо бўлиб кирган давлатлар билан ҳам мувозий тарзда дипломатик алоқалар ўрнатилди ва мазкур давлатлар Европа ҳамжамиятлари билан Ўзбекистон ўртасида имзоланган халқаро шартномаларга ҳам қўшила бордилар. Дипломатик муносабатлар бўйича тўлиқ маълумот учун қаранг: Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ: Дарслик. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 38-41.

vaqtda sodir bo'lishi shart emas va, odatda, keyingisi, tashkiliy-moddiy va moliyaviy omillar bilan bog'langan jarayondir.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining Yevropa hamjamiyatlari qoshidagi Missiyasi 1995 yil 6 mayda o'z faoliyatini boshladi va bu ikki tomonlama diplomatik aloqalarning qaror topishidagi oxirgi qadam bo'ldi.

“Belgiya Qirolligida O'zbekiston Respublikasi Elchixonasini ochish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 6 maydagi 162-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasining Belgiya Qirolligidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi, ayni paytda, O'zbekiston Respublikasining Yevropa hamjamiyatlari qoshidagi Missiya boshlig'i vazifasini bajaradi. 2002 yil oktyabrda Yevropa Komissiyasi tomonidan, Yevropa hamjamiyatlarining doimiy delegatsiyasi bo'lmagan uchta hamkor-davlatlarda uning faoliyatini amalga oshirish va boshqarishni qo'llab-quvvatlash uchun ofislar ochish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu ofislar “Yevropa Uyi” nomini oldi va ularning biri O'zbekistonda (Toshkentda) o'z faoliyatini boshladi. “Yevropa Uyi” Yevropa Komissiyaga to'g'ridan-to'g'ri hisobot beradi va Yevropa hamjamiyatlarining O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonasi vazifasini vaqtincha bajarib turadi.

Yevropa Ittifoqi va hamjamiyatlari hamda uning a'zo davlatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida ko'p tomonlama diplomatik aloqalarning o'rnatilishi tomonlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy va boshqa sohalardagi hamkorlikning rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi hamda unga a'zo mamlakatlar uchun o'zaro manfaatli va keng qamrovli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, bugungi kunda ikki tomon uchun ham katta siyosiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi mamlakatda bozor munosabatlariga asoslangan keng infratuzilmaga ega bo'lgan iqtisodiyotni yuzaga keltirish hamda dunyoviy demokratik davlatni barpo etish yo'lida, jahondagi yirik rivojlangan davlatlar bilan yaqin aloqalarni olib borishi davr talabiga aylanib bormoqda. Jumladan, bunday davlatlar qatoriga Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar kiradi. Shu bois ham O'zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishdan manfaatdorligi quyidagi omillar bilan izohlanadi.

2023 yil 2-iyundagi Qirg'iziston Respublikasi Cho'lponotada o'tkazilgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” ikkinchi sammitidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqidan quyidagilarni ta'kidlab, “Murakkab geosiyosiy vaziyat va global iqtisodiyotdagi salbiy jarayonlarga qaramasdan, Markaziy Osiyo mamlakatlari barqaror o'sishni namoyish etmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tahlilchilarining so'nggi o'rganishlariga ko'ra, mintaqadagi umumiy iqtisodiy o'sish joriy yilda 5,2 foizni va kelgusi yilda 5,4 foizni tashkil qiladi. Yevropalik ekspertlar O'zbekistonda o'rtacha 6,5 foizlik yillik o'sishni prognoz

qilmoqda. Ayni paytda biz 2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmi va aholining real daromadlarini ikki barobar oshirib, daromadlari o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirishni rejalashtiryapmiz.”³ degan fikrlarini bejizga bildirmaganligini kelgusi ma'lumotlarimizda o'z tasdig'ini topmoqda.

2023-yil davomida YI davlatlari bilan savdo aylanmasi 5,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi, eksport 1,1 mlrd AQSH dollariga, import esa 4,1 mlrd AQSH dollariga teng bo'ldi⁴. YI mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli savdo rejimi o'rnatilgan.

Misol tariqasida ayrim davlat bilan aloqalarini ko'rib chiqsak, O'zbekiston-Fransiya munosabatlari do'stona va o'zaro hurmat tamoyillari asosida shakllangan. Bugungi kunga qadar Fransiyaga – 4 ta, O'zbekistonga – 2 ta jami 6 ta oliy darajada tashrif amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuyel Makronning taklifiga binoan 2018-yil 8-9-oktyabr va 2022-yil 21-22-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan Fransiyada bo'ldi. 2023-yilning 1-2-noyabr kunlari Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuyel Makron rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. O'zbekistonda Fransiya sarmoyasi ishtirokida 47 ta korxonalar, jumladan, 23 tasi 100 foiz fransuz kapitali bilan faoliyat yuritmoqda. 2023-yil yakuniga ko'ra o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 984,7 million AQSH dollarini tashkil etdi, shu jumladan, eksport - 392,1 mln., import - 592,6 mln.⁵.

Italiya va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 24-martda o'rnatilgan. Bugungi kunga qadar, 6 ta oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi. Xususan, 2023-yil 8-9-iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Italiya Respublikasiga va 9-11-noyabr kunlari Italiya Respublikasi Prezidenti S.Mattarellaning mamlakatimizga tashrifi bo'lib o'tdi.

2023-yil aprel oyida Italiya parlamentida “Italiya-Markaziy Osiyo” do'stlik guruhi tuzildi. 1999-yildan beri Savdo-iqtisodiy, sanoat kooperatsiyasi va eksport kreditlari bo'yicha hukumatlararo ishchi guruh ishlab kelmoqda. 2023-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston-Italiya savdo aylanmasi hajmi 502,5 million AQSH dollari tashkil etdi.

Germaniya bilan aloqalar ko'p qirrali va an'anaviy ravishda rivojlangan bo'lib, hamkorlikning ko'plab sohalarini qamrab oladi. Mustahkam shartnomaviy-huquqiy baza shakllangan. Mamlakatlar o'rtasidagi oliy va yuqori darajalardagi siyosiy muloqot jadal rivojlanib kelmoqda. 9 ta oliy darajadagi tashriflar amalga oshirilgan: shu jumladan Germaniyaga rasmiy tashriflar (1993, 1995, 2001, 2019-yil 20-22 yanvar, 2023-yil 2-3-may va 28-30-sentyabr), Federal prezident R.Herzogning O'zbekistonga davlat tashrifi (1995-yil), Kansler G. Shryoder (2002-yil) va Federal prezident Frank-Valter Shtaynmayer (2019-yil 27-29-may) rasmiy tashriflari. 2021-yil

³ <https://president.uz/uz/lists/view/6395>

⁴ <https://mfa.uz/uz/pages/with-European-countries>

⁵ <https://mfa.uz/uz/pages/with-European-countries>

12-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Germaniya Kansleri A.Merkel bilan videokonferensiya shaklida muzokaralar o‘tkazdi. 2021-2022-yillarda Germaniya Federal Prezidenti va Kansleri bilan jami 5 ta telefon suhbatlari bo‘lib o‘tdi.

2023-yil 2-3-may kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Germaniyaga rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi, uning doirasida Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer, Kansler Olaf Shols va yetakchi nemis kompaniyalari rahbarlari bilan muzokaralar o‘tkazildi. Shuningdek, Berlinda J.Simone galereyasida O‘zbekistonning arxeologik xazinalari ko‘rgazmasining ochilishida ishtirok etdi.

2023-yil 28-30-sentyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti "Markaziy Osiyo - Germaniya" formatidagi birinchi sammitda ishtirok etish uchun Germaniyaga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer, Kansler O.Shols bilan muzokaralar bo‘lib o‘tdi.

2023-yil 28-fevral – 3-mart kunlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov boshchiligidagi delegatsiyasi Germaniyaga tashrif buyurdi. Vise-kansler, iqtisodiyot va iqlimni muhofazasi vaziri R.Habek, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot vaziri S.Shulze, mehnat vaziri H.Xeyl, Hamburg shahrining birinchi burgomistri P.Chencher, yetakchi nemis kompaniyalari rahbariyati bilan uchrashuvlar o‘tkazildi.

O‘zbekistonva Germaniya tashqi ishlar vazirliklari rahbarlari o‘rtasida muntazam muloqot o‘rnatilgan. O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri B.Saidov Germaniya Federal tashqi ishlar vaziri A.Berbok bilan 2023-yil mayda Berlinda, 2023-yil sentyabrda New-Yorkda, 2023-yil noyabrda Skopeda (Shimoliy Makedoniya) uchrashuvlar o‘tkazdi.

Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin: **Birinchi**dan, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni e‘lon qilingan kundan e‘tiboran mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni to‘g‘ri yo‘naltira oldi. Mamlakatning ichki rivojlanishi, tashqi siyosat bo‘yicha ham zaruriy strategik tamoyillar ishlab chiqilib, asosiy vazifalar belgilab olindi. **Ikkinchi**dan, O‘zbekiston Respublikasi jahonning yirik rivojlangan va integratsiyalashgan tashkiloti bo‘lgan Yevropa Ittifoqi bilan ko‘p tomonlama o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. U Yevropa davlatlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan namunasini mujassamlashtirgan. Yevropa Ittifoqi va unga a‘zo mamlakatlar tomonidan ko‘rsatilayotgan texnik, investision va boshqa turdagi yordami, ularning rivodlanish tajribasi va usuli O‘zbekiston Respublikasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda deyarli barcha Yevropa Ittifoqiga e‘zo mamlakatlar ishtirok etmoqda. Rivojlangan davlatlar iqtisodiy va investisiyaviy yordamni amalga oshirilmoqda. Ular o‘zlarining texnologik va texnik ko‘maklarini O‘zbekistonda zamonaviy xalqaro talablarga javob beradigan iqtisodiy infratuzilmani yaratishga qaratmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Европа Иттифоқига кейинчалик аъзо бўлиб кирган давлатлар билан ҳам мувозий тарзда дипломатик алоқалар ўрнатилди ва мазкур давлатлар Европа ҳамжамиятлари билан Ўзбекистон ўртасида имзоланган халқаро шартномаларга ҳам қўшила бордилар. Дипломатик муносабатлар бўйича тўлиқ маълумот учун қаранг: Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ: Дарслик. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 38-41.
2. Bulletin de CE, n 1-2/ 1992. – P. 76.
3. Ф.О.Исматуллаев. Ўзбекистон Республикасининг Европа иттифоқи билан ҳамкорлигининг ўрнатилиши ва ривожланиши (1991-2005 йиллар). Автореферат. Т. 2011.
4. <https://president.uz/uz/lists/view/6395>
5. <https://mfa.uz/uz/pages/with-European-countries>